



O'ZBEK TA'LIM TIZIMI TERMINLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

1. *Xoliqova Mahbuba Abdimo'min qizi*

2. *Osiyo texnologiyalar universiteti magistri*

3. xoliqovamahbuba04@gmail.com

4.

5. **Annotatsiya.** Ushbu maqola o'zbek ta'lim tizimi terminlarining semantik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda ta'lim terminlarining monosemantik tabiati, termin va pedagogik tushuncha o'rtasidagi munosabat, semantik motivatsiya hamda terminologik tizimdagi giperonimik va giponimik aloqalar ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, ta'lim terminlarining semantik rivoji, sinonimiya, antonimiya kabi semantik munosabati ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim terminlarining ilmiy kommunikatsiyadagi aniqligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

6. **Kalit so'zlar:** ta'lim terminologiyasi, semantik xususiyatlar, monosemantiklik, semantik munosabat, polisemantik, terminologik tizim.

7. Ta'lim sohasida qo'llanilayotgan terminlar pedagogik jarayonning mazmuni, shakli, metodlari va natijalarini ifodalaydi. Shu sababli ularning semantik xususiyatlarini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Terminlarning monosemantik yoki polisemantik tabiati, ularning giperonimik-giponimik tizimda joylashuvi hamda terminologik moslashuv jarayonlari ta'lim diskursining aniqligi va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [1, 52-b.; 2, 34-b.].

8. Mazkur maqolada o'zbek ta'lim tizimi terminlarining semantik xususiyatlari tizimli tahlil qilinadi hamda ularning ilmiy kommunikatsiyadagi funksional ahamiyati yoritiladi.

9. Semantik tahlil terminlarning ma'nosi, kontekstual qo'llanilishi va terminologik aniqligini o'rganadi[5].



10. Ta'lim terminlari semantik jihatdan quyidagi xususiyatlarga ega: bir ma'nolilik, ko'p ma'nolilik, terminologik moslashuv va ixtisoslashuv.

11. **Bir ma'nolilik** (monosemantizm) – (yun. monos – bir + sema – belgi) – Ta'lim terminlarida bir ma'nolilik uchraydi. “Til birliklarining faqat bir ma'noga ega bo'lishi bir ma'nolilik” hodisasi hisoblanadi. A.Hojiyev ta'kidlaganidek, termin imkon qadar bir tushunchani ifodalashi lozim, chunki ko'p ma'nolilik ilmiy aniqlikka putur yetkazadi [7, 23]. Bu terminlar faqat bitta aniq ilmiy tushunchani anglatadi: *bakalavr, semestr, attestatsiya, sinfdosh*.

12. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek ta'lim terminologiyasida monosemantiklik nisbatan yuqori darajada saqlangan. Bu holat, ayniqsa, normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv-me'yoriy tizimda terminlarning qat'iy standartlashtirilgani bilan izohlanadi. Natijada terminlar kontekstga bog'liq holda ma'no o'zgartirmaydi va kommunikativ aniqlik ta'minlanadi.

13. “Ozbek tilining izohli lug'ati”da *bakalavr* terminiga quyidagicha izoh berilgan:

14. **Bakalavr** (lot. Baccalaureus) Ba'zi mamlakatlarda va O'zbekistonda: oliy ta'lim dasturining birinchi bosqichini tugallagan talabalarning ilmiy darajasi. (O'TIL, I, 248).

15. **Semestr** (fr. semestre < lot. semestris – olti oylik; yarim yillik < sex – olti + mensis – oy) Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'quv yilining yarmi. (O'TIL, 4,593)

16. **Attestatsiya** (lot. attestatio – guvohlik berish; guvohnoma; tasdiqnoma) Xodim malakasini, bilim darajasi va xulq-atvorini aniqlash va shu asosda ishga tayinlash va unvon berish.(O'TIL, 1, 170)

17. **Sinfdosh** – Bir sinfda o'qiydigan yoki o'qigan bolalar (bir-biriga nisbatan). (O'TIL, 4, 643)

18. Bu terminlar kontekstga bog'liq bo'lmagan yagona ma'noni bildiradi. Masalan: kredit – ta'lim kredit-modul tizimida belgilangan o'quv yukini ifodalaydi, boshqa ma'noda ishlatilmaydi. Shuningdek, yuqorida izohlangan terminlar ham



faqat bir ma'noni ifodalaydi. Monosemantik terminlar ilmiy aniq izoh va baholashni osonlashtiradi hamda terminologik barqarorlikni ta'minlaydi.

19. **Ko'p ma'nolilik** (polisemantik) – (yun. poly – ko'p + sema – belgi) – ko'p ma'nolilik . Til birliklarining ko'p ma'noga ega bo'lishi [7]. Polisemantik terminlar umumxalq tilidan terminologik tizimga o'tish jarayonida shakllanadi.

20. **2. Ko'p ma'nolilik** (Polisemantik terminlar). Bu terminlar ta'lim sohasida ham, boshqa sohalarda ham turli ma'noda ishlatiladi:

21. *Guruh, ta'lim, dars, bilim, didaktika*

22. O'zbek tilining izohli lug'atida guruh so'zining besh xil ma'nosi izohlangan: “1 Bir to'p odam, to'da. 2 Maqsad, maslak, faoliyat va sh. k. lar umumiyliigi asosida shakllangan rasmiy yoki norasmiy jamoa. 3 Umumiy belgi, xususiyatga ega bo'lgan bir turdagi narsa, hodisalar majmui, turkumi. 4 Dars, mashg'ulot o'tkazish maqsadida birlashtirilgan kishilar, talabalar bo'linmasi, to'pi. 5 Tabaqa, toifa; daraja” [6].

23. Ko'rinadiki, guruh so'zining qayd qilingan to'rtinchi ma'nosi ta'lim sohasi tushunchasi bilan bog'liq. Guruh so'zi terminologik ma'no xarakter kasb etgan ushbu 4-ma'nosi asosida ta'lim tizimi terminlariga oid qator tushunchalarni ifodalovchi terminlarning yuzaga kelishida ham faol ishtirok etadi.

24. O'zbek tilining leksik birligi bo'lgan dars so'zi ham o'zbek ta'lim tizimi termini sifatida xizmat qiladi. Dars so'zining umumfilologik lug'atda ikki xil ma'nosi izohlanganligi uning ko'p ma'noli birlik ekanligidan dalolat beradi: “1 Ta'lim muassasalarida ilm, ma'lumot berish maqsadida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari, saboq. 2 ko'chma Hayotiy tajribadan kelajak uchun chiqarilgan foydali natija, ibrat, saboq” [6]. Izohdan ma'lum bo'ladiki, dars so'zining birinchi ma'nosi sof terminologik xarakter kasb etadi. Ikkinchi ma'no esa, lug'at maqolasida qayd qilinganidek, ko'chma ma'no bo'lib, umumleksikaga xos. Maxsus ensiklopedik lug'atda ham dars polisemantik termin sifatida tavsiflangan. Biroq, dars tushunchasi bilan bog'liq leksik birlikning umumleksikaga oid ko'p ma'noliligi bilan terminologik tizimga xos ko'p ma'noliligi o'rtasida jiddiy farq ko'zga tashlanadi,



ya'ni umumlingvistik izohli lug'atda qayd qilingan dars so'zining birinchi ma'nosida soha tushunchasiga aloqadorlik mavjud, ikkinchi ma'nosi terminologik xususiyatga ega emas. Soha lug'atida esa dars terminining qayd qilingan har ikki ma'nosi ham terminologik mohiyatlidir: "DARS (arab. – saboq, ma'ruza) 1) uzluksiz ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'limning asosiy shakli; 2) o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli, mantiqiy tugallangan, yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning aniq vaqt bilan cheklangan qismi"[6]. Soha lug'atida qayd qilingan ikki xil ma'no o'rtasida jiddiy semik farqlilik sezilmaydi. Shunga asosan, ushbu ma'nolarni umumlashtirgan holda dars terminining terminologik ma'nosini "o'quv-tarbiyaviy jarayonning muayyan bilim hosil qilish, ko'nikma va malakani shakllantirishga qaratilgan, mantiqiy tugallangan, aniq vaqt bilan belgilangan asosiy tashkiliy shakli" tarzida tavsiflash lozim. Metodikaga oid termin va tushunchalar lug'atida dars termini monosemantik termin sifatida to'g'ri yondashuv asosida izohlangan: "DARS. Maktabdagi o'quv jarayonining asosiy tashkiliy shakli (oliy ta'limdagi amaliy mashg'ulot turi), uning maqsadi tugallangan natijaga erishishdir; talabalarning doimiy tarkibi bilan, qat'iy jadvalga muvofiq amalga oshiriladi") [6]

25. Masalan, *guruh* so'zi umumxalq tilida "to'da" yoki "tabaqa" ma'nolarini bildiradi. Biroq ta'lim tizimida u "dars jarayonini tashkil etish uchun birlashtirilgan talabalar jamoasi" degan maxsus semantik chegaraga ega bo'ladi. Shu tariqa leksik birlik terminologik ixtisoslashuv jarayonidan o'tadi [1, 68-b.].

26. Yana bir misol sifatida *kredit* terminini keltirish mumkin. Dastlab iqtisodiy sohada "qarz mablag'i" ma'nosini bildirgan ushbu birlik, oliy ta'lim tizimida "o'quv yuklamasining o'lchov birligi" ma'nosida qo'llanila boshlagan. Bu jarayon semantik torayish (ixtisoslashuv) orqali amalga oshgan.

27. Ko'p ma'nolilik terminlarni kontekstga moslashishga majbur qiladi va terminologik standartlashuvni talab qiladi [1;2].

28. **Terminologik va ixtisoslashuv** umumxalq tiliga mansub yoki ko'p manoli leksik birlikning muayyan fan soha yoki kasbiy faoliyat doirasida aniq, chegaralangan va maxsus tushunchani ifodalovchi termin sifatida shakllanish



jarayonidir [1;5]. U terminologik tizimning barqarorligi va konseptual aniqligini ta'minlovchi muhim lingvistik mexanizm hisoblanadi [1].

29.МИСОЛ

30. **Semantik munosabatlar** – til birliklari (so'z, termin, ibora) o'rtasida ularning ma'no tarkibi va mazmuniy xususiyatlari asosida yuzaga keladigan mantiqiy-mazmuniy bog'liqlikdir. Boshqacha aytganda, semantik munosabat – bu leksik birliklarning ma'no jihatidan o'zaro aloqadorlik shaklidir.

31. Semantik tahlil terminologik aniqlikni oshiradi, ilmiy muloqot va ta'lim jarayonida terminlarni to'g'ri qo'llash imkonini yaratadi [2].

32. 3. Terminologik ixtisoslashuv

33.Semantik jihatdan terminlar o'z sohasiga xos ixtisoslikka ega:

34.**Didaktik terminlar** – o'qitish jarayoni, uning tarkibiy qismlari, metodlari, shakllari va natijalarini idodalovchi, semantik jihatdan aniqlikka ega bo'lgan pedagogik terminologik birliklardir[3]. Ular ta'lim jarayoni nazariy va amaliy jihatdan izohlash hamda standartlashtirishga xizmat qiladi: *O'quv rejasi, o'quv dasturi, yakuniy nazorat, o'quv jarayoni, oraliq nazorat, o'quv maqsadi, o'quv vazifasi.*

35.**Pedagogik terminlar** mazmunan keng bo'lib, ular ta'lim jarayonining mazmuni, maqsadi, shakli va natijasini ifodalaydi. Ushbu terminlar didaktik, metodik va boshqaruvga oid sohalar bilan uzviy bog'liq bo'lib zamonaviy ta'lim tizimining ilmiy asosini tashkil etadi : *O'qituvchi, pedagog, o'qitish, bilim, ko'nikma, malaka, tarbiya, tarbiyachi, pedagogik yondashuv, pedagogik jarayon, pedagogik tamoyil.*

36.**Metodik terminlar** – o'qitish jarayoning tashkiliy, texnologik va amaliy jihatlarini ifodalovchi, semantik jihatdan aniqlangan pedagogik terminologik birliklardir. Ular darsni rejalashtirish, metod tanlash, o'quv materialini taqdim etish va baholash mexanizmlarini belgilashda qo'llaniladi: *Metodika, modullashtirish, baholash, metod, usul, klaster usul, aqliy hujum, metodik tavsiya, metodik qo'llanma.*



37. **Psixolingvistik terminlar** – til va tafakkur o'rtasidagi munosabatni, nutqni qabul qilish, ishlab chiqish va tushunish jarayonlarini o'rganishga oid ilmiy atamalardir. Psixolingvistika psixologiya va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan fan hisoblanadi: *Kompetensiya, nutq, nutq faoliyati, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, motivatsiya, til qobiliyati, nutq malakasi, nutq ko'nikmasi, refleksiya.*

38. **Texnologik terminlar** – ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari, ta'lim texnologiyasi va innovatsion jarayonlarga oid ilmiy-texnik atamalardir [4]. Zamonaviy o'zbek ta'lim tizimida ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va pedagogik texnologiya bilan bog'liq terminlar keng qo'llaniladi: *Monitoring, onlayn ta'lim, platforma, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim, elektron resurs, elektron darslik, innovatsion texnologiya, kredit-modul tizimi, interfaol metod,*

39. 4. Semantik munosabatlar

40. Terminlar orasidagi semantik munosabatlar:

41. **Sinonimiya.** (yun. Synonymia – bir xil nomga egalik). Til birliklarining (so'zlar, iboralar, va b.) bir xil denotativ ma'noga ega bo'lishi [7] : *baholash – evaluatsiya, o'qituvchi – pedagog, o'quvchi-o'rganuvchi, kurs-bosqich, bob-bo'lim, baho-ball, xulosa-yakun, test-sinov*

42. **Antonimiya.** Til birliklarining semantik jihatdan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lish hodisasi [7]: *muvaffaqiyat – muvaffaqiyatsizlik, odobli-odobsiz, tartibli-tartibsiz, tarbiyali-tarbiyasiz, a'lochi-ikkichi, qoniqarli-qoniqarsiz.*

43. **Giperonimiya / Giponimiya:** Giperonimiya – umumiyroq tushunchaning torroq tushunchalarni qamrab olishi; giponimiya esa uning tarkibiy ko'rinishlari hisoblanadi [7, 65-b.] *ta'lim – maktabgacha ta'lim – o'rta ta'lim - oliy ta'lim (magistratura/doktorantura).*

44. **Omonimiya**– shaklan bir xil, ammo ma'nosi turlicha bo'lgan birliklar o'rtasidagi munosabatdir [7, 81-b.]. Terminologiyada omonimlar kommunikativ noaniqlik keltirib chiqarishi mumkin. *Kredit – qarz/ o'lchov birligi; baho –sifat*



ko'rsatkichi/qiyamat; sinov – qiyinchilik/ tekshiruv jarayoni; institut – oliy ta'lim muassasa/ ijtimoiy tuzilma.

45. 5. Terminologik moslashuv va o'zlashuv

46. Zamonaviy ta'limda inglizcha va boshqa tillardan o'zlashgan terminlar:

47. *Monitoring, assessment, feedback, rating, soft skills, hard skills, blended learning, e-learning.*

48. Bunday terminlar semantik jihatdan o'zbek tiliga moslashadi va terminologik tizimga integratsiyalanadi[4].

49. O'zbek ta'lim tizimi terminlarining semantik xususiyatlari ularning tushunchaviy aniqligi, monosemantiklik darajasi va ilmiy kommunikatsiyadagi barqarorligi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim terminlari pedagogik jarayonning turli komponentlarini ifodalashda yuqori darajada tizimli va aniqlikka ega: ular subyekt, jarayon, metod, baholash vositalari va natijalarni aniq nomlaydi.

50. Monosemantiklik terminlarning eng muhim semantik xususiyati hisoblanadi. Masalan, attestatsiya, sinfdosh, semestr, bakalavr, kredit kabi terminlar har doim bitta tushunchani ifodalaydi, bu esa ilmiy va amaliy ta'lim diskursida tushunmovchilikni kamaytiradi. Shu bilan birga, giperonimiya va giponimiya, semantik yaqinlik va sinonimlik orqali terminologik tizim o'zaro bog'langan va barqaror bo'ladi. Masalan, ta'lim giperonimiya sifatida masofaviy ta'lim yoki inklyuziv ta'lim kabi turli xil tushunchalarni qamrab oladi.

51. Xulosa qilib aytganda, o'zbek ta'lim tizimi terminlari semantik jihatdan barqaror, tushunchaviy aniqlikni saqlovchi va tizimli birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar ta'lim jarayoni va pedagogik kommunikatsiyani samarali tashkil etish, ilmiy va amaliy ma'lumotni to'liq yetkazish hamda terminologik me'yorlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, semantik tahlil o'zbek ta'lim terminologiyasining normativ va konseptual rivojlanishini nazorat qilish, yangi terminlarni tizimli ravishda joriy etish va xalqaro terminologik standartlarga moslashtirish imkonini beradi.



52.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

53. 1.Abdukarimov, Sh. O‘zbek tilining ilmiy terminologiyasi. Toshkent, 2018. (52;68)
54. 2.Karimov, O. Ta’lim terminologiyasining semantik xususiyatlari. Toshkent, 2020. (34 – 49)
55. 3.Mirzaev, A. Pedagogika va metodika terminlari lug‘ati. Toshkent, 2019.(15;27)
56. 4.Sobirova, N. Oliy ta’lim terminologiyasi va zamonaviy ta’lim texnologiyalari. Samarkand, 2021.(73;95)
57. 5.Islomov, F. Terminologiya va ilmiy so‘zlashuv. Buxoro, 2017.(21;39)
58. 6.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. I jild. – Toshkent: O‘zbekiston O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 528-529; 569; 607; 641; 642-betlar 2006. – 680b.
59. 7.A.Hojiyev Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2002. (16; 22; 65; 81; 88-betlar)
- 60.
- 61.